

ILM ZIYOSI



@tdtuofuz tdtuof.uz +998 93 544 96 94 +998 93 188 77 79

BIR TALABA UCHUN YILLIK O'QITISH XARAJATI QANCHA?
#bu_giziq 5-sahifa

5-sahifa
2024-YILGI KVOTALAR TASDIQLANDI

«4 yillik talabalik mening hayotimda...»

Talabalik – inson hayotidagi eng yorqin va xotiralarga boy davr hisoblanadi. Bu davrda yoshlar yangi bilimlar olishadi, ko'plab do'stlar o'rttirishadi va turli xil qiziqarli voqealarga guvoh bo'lishadi.

2-3 SAHIFA



RITOB - HAYOT KAZINASI
6-sahifa



Universitetda o'qish davrida talabalar nafaqat kasbiy bilimlarni egallashadi, balki mustaqil hayotni o'rganishadi va kelajakka tayyorgarlik ko'rishadi. Talabalik yillari - ilhomlantiruvchi va shu bilan birga katta mas'uliyatni his qildiruvchi vaqtdir. Mana shu qisqa, ammo kimlar uchun juda ko'p narsalarni hadya etolgan vaqt talabaniing hayotida oltin harflar bilan qoladi. Siz quyida, ayni sinovli yillarda (karantin vaqtida) talabalik baxtiga erishgan, hadik, ming xil xayol, turli savollar bilan onlayn olamga bog'langan holda o'zlarining talabalik yillarini boshlagan, bu yilgi bitiruvchilarning 4 yil davomida TDTU Olmaliq filialida o'tgan umri haqida qisqacha mulohazalari bilan tanishishingiz mumkin.

MANSUR JUMAYEV

"OVQAT YEMAGAN KUNLARIMIZ BO'LDI, BIROQ..."

Talabalik bu – oltin davr desalar ishonmasdim ochig'i, qachonki Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialida talaba degan nomga sazovor bo'lgunimga qadar.

2020-yilda o'qishga qabul qilinganimda ta'lim tizimi online bo'lib, karantin tufayli meni oldinda qanday sarguzashtlar kutiyotgani qorong'i edi. O'zbekistonning janubi bo'lmish Surxondaryo viloyatidan bo'lganim bois kirgan oliygohim haqida ham kam ma'lumotga ega edim.

Kechagidek esimda, o'qishga kelganimda ustozlarim shunchalik yaxshi kutib olganki, begona joyga emas, o'zimni ikkinchi uyimga kelgandek his qilgandim, afsuski o'qishimiz (karantin sababli) online bo'lganligi uchun birinchi kursligimda talabalik qanaqa ekanligini his qilolmadim.

2-bosqichga o'tganimda ustozlarim va kursdoshlar bilan nihoyat ko'rishdik, karantin tugadi. Darslarga e'tibor kuchaytirilgani bois o'qishga bo'lgan shijoatim yanada oshdi. 4 yil davomida filialimizda umuman korrupsiyaviy holatni guvohi bo'lmadim. (Balkim darslarni yaxshi o'zlashtirganim sababdir). O'sha yillarda tyutorlik lavozimi joriy qilingan bo'lib, bizga Sultonbek Abdujabborov tyutor bo'ldi. To'g'risi, bu inson men uchun ham aka, ham ustoz edi, shunchalik hayot, ta'lim va kelajak haqida o'ylamagan narsalarimizni aytardiki, eshitganlarimiz amali esa bizdan katta mehnat talab qilardi. O'qishga bo'lgan harakatlarim sababli guruhimizga guruh sardori qilib tayinlashdi. Bu meni yanada ruhlantirdi. Ayni o'sha vaqtda ingliz tiliga qiziqqanligim bois qo'shimcha dars olishni maqsad qilib, til o'rganishni boshladim

3-bosqichda kursdoshlarim bilan teatr jamoasini tuzdik. Texnika universiteti talabalari bo'lsakda, teatrga qiziqishimiz yuqori edi, shu sababli filialda jamoam bilan birga oyda bir marta teatr qo'yib, nafaqat talabalar, hatto o'zimiz ham mazza qilib hordiq chiqarardik. Teatr sahnalashtirish aslida qiyin ish edi, biroq yakuni xursandchilik bilan bitar, ba'zida bir marotaba qo'yib, nizolarga borib qolsak, ikkinchi umuman qilmaymiz derdigu, teatrdan keyin yana o'sha yo'ldan davom etardik.

Ilmiy rahbarim Go'zal Yusupova



bilan juda ko'plab ishlar olib bordik, hozirgi kungacha 25 dan ziyod ilmiy maqolalar chiqardik. Ba'zi vaqtlarda maqola yozishga vaqtim bo'lmayapti, darslarim ko'p deganimda (hamma dangasa talabalardek), ustozim har doim faqat oldinga intiling, bahona qilmang, bo'lmasa tengdoshlaringizdan qolib ketasiz va hech narsaga erisha olmasiz derdi. Haqiqatdan ham hamma narsaga bahonalarsiz shunchaki intilish kerak ekan, shunda maqsadga erishsa bo'ladi.

4- bosqich – sayohat davri bo'ldi. Filial rahbariyati tashabbusi bilan teatrlar va sayohat(Samarqand-Buxoro)larga bordik. Shuningdek, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialida bo'lib o'tgan "Yil talabasi-2023" tanlovi bo'yicha «Yilning eng faol-iqtidorli talabasi» nominatsiyasida 1-o'rin sohibi bo'ldim. Muvaffaqiyatlarimdan yana biri - ingliz tilidan xalqaro IELTS sertifikatini qo'lga kiritdim. Bu sertifikat menga ko'plab imkoniyatlar eshigini ochdi, shundan eng muhimi magistraturaga yo'llanmani olish imkoniyatiga erishdim.

Talabalik davrimda joyi kelsa kursdoshlarim bilan pulimiz yo'qligidan roltan yeb, ba'zida hech narsa yemay och qolgan kunlarimiz bo'ldi. Kunlik ishga chiqib, pul ham ishladik. Ba'zida sayohatlarga chiqib, qo'ylar so'yib yegan kunlarimiz bo'ldi, xullas talabalikda bizga atalgan hamma narsani boshdan o'tkazdik. Bu davrim menga bergan eng katta mukofoti - ilm yo'lida hayotim ijobiy tomonga o'zgardi. Aniq maqsadlarim bilan kelajakka qadam qo'ydim.

NIHOLA OBIDJONOVA

"KELAJAK UCHUN YANGI YO'L OCHDI"



"Talabalik" degan so'z bilan boshlangan jumla har doim "oltin davr" bilan tugallanishiga barchamiz o'rganib qolganmiz. Chindan ham talabalik oltin davrdir. 4 yil universitetda ta'lim olib, buni yanada chuqurroq anglab yetdim. Talabalik insonni jamiyat tomon olib boruvchi katta qadamlardan biri, cheksiz imkoniyatlarni ochish eshigidir. Hammamizga ma'lumki, bizning yurtimizda eng ko'p e'tibor ayni damdagina emas, har doim talaba yoshlarimizga qaratilgan. Talabalik men uchun o'zgacha dunyoqarash, ravon va kuchli nutq, soham bo'yicha bilimlar, chet tili sertifikat, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lgan ustozlar, qadrlı do'st va eng asosiysi kelajakka yangi bir yo'l berdi. Talabalik menga hech narsa bermadi, degan talaba ham biladiki, talabalik unga hech bo'lmaganda maqsadlarini aniqlashtirib olishi uchun 4 yil vaqt beradi. Vaqtning o'zi oltinga tengdir, shundan balkim talabalik oltin davrga qiyoslanar. Oltinni qanday sarflash esa talabaniing o'ziga bog'liq, albatta.

ANISXON ASADOV

"HAYOTIM UCHUN MUHIM TAJRIBALAR VA XOTIRALAR BERDI"

4 yillik talabalik hayotimni tom ma'noda o'zgartirdi, mas'uliyatli bo'lishga o'rgatdi, har xil insonlar bilan tanishib, muloqot qilib, dunyoqarashimni kengaytirdi va o'ziga xos hayotiy tajribalarga boy bo'ldim!

Shu bilan birga, talabalikning ijtimoiy hayotida ham faol bo'ldim: turli tadbirlarda qatnashdim, do'stlar orttirdim va teatrlarda rollar ijro etdim. Har bir yilning o'zgacha ahamiyati bor edi va bu davr menga kelajakdagi hayotim uchun muhim tajribalar va xotiralar berdi.



«AMALIYOT VA STAJIROVKALAR ORQALI KASBIY TAJRIBAGA HAM EGA BO'LDIK»

Talabalik insonning eng yorqin va unutilmas damlaridir. Bu davrda biz nafaqat bilim olamiz, balki hayotning ko'plab muhim saboqlarini ham o'rganamiz.

Bu vaqtda yetakchi va tajribali ustozlardan bilim va ko'nikmalarni o'rganish bilan birga o'quv jarayonida turli fanlar bo'yicha chuqur bilim olish, amaliyot va stajirovkalar orqali kasbiy tajribaga ham ega bo'ldik. Bularning barchasi bizni muvaffaqiyatli va mas'uliyatli kadr bo'lib yetishishimizga yordam berdi.

Bu davr menga insonlar orasida qanday muomala qilish, mustaqil qaror qabul qilish va o'z mas'uliyatlarimni anglashni o'rgatdi.

Rustam Ashurov

Asal Esanboyeva "ENG KATTA ORZULARIMDAN BIRI USHALDI"



Eng katta orzularimdan biri bu universitetda o'qish edi va men bu orzuyimga erishdim. Mana shu 4 yil ichida universitetda juda ko'p olim va olima ustozlardan bilim va ko'nikmalar oldim va yana juda ko'p do'stlar orttirdim. Universitetda o'tgan 4 yilimni oltinga teng davr bo'ldi, desam hech adashmayman. Jamiyatimizdagi har bir yosh avlod oliy ta'lim muassasalarida o'qib, tahsil olishlarini xohlab qolardim.



Farangiz Mirusmonova

"VAQTNI QAY YO'SINDA

SARFLASH KO'PROQ AHAMIYATGA EGA"

O'tgan 4 yil vaqt kaftimdan sirg'alib, zaminga talpingan ikki hovuch suv kabi o'tdi. Ushbu yillar menga shu narsani o'rgatdiki, inson qayerdan, qanday va nima sababdan kelganining ahamiyati yo'q, balki ayni damda turgan manzilidan qayoqqa qarab yurishi, unga berilgan vaqtni qay yo'sinda sarflashi ko'proq ahamiyatga ega ekan. Aytсам ishonmassiz, lekin kun kelib ushbu dargohda kimyoviy texnologiya sohasida o'qishim xayolimga ham kelmagandi. Taqdir meni shu yerga olib kelgan ekan, demak bunda bir ma'no bor.

TDTU Olmaliq filialida ayni damda tahsil olayotgan talabalarga esa bir narsani ayto lamanki, taqdiringiz sizni ham bu yerga bejiz olib kelmagan, o'z vaqtingizni qadrlang! Ustozlaringiz mehnatini qadrlang! Duolarini oling. O'zingizga turli chegaralar qo'ymang! Oldingizga biror maqsad qo'ydingizmi, oxirigacha boring. Ishoning, hozir irodali va sabrli bo'lganingiz kun kelib o'z mevasini beradi.



Iroda Ashirmatova

"STIPENDIAT TALABA BO'LIH O'ZGACHA EKAN"

Qachonlardir talaba bo'lishni va bu davrda ulkan muvaffaqiyatlarga erishishni orzu qilib yashardim. Bugun shu orzular ro'yobida yashash nasib qildi. Professor o'qituvchilardan ta'lim olish, ko'plab do'stlar orttirish, talabalar bilan birgalikda sayohatlar, 3-4-kursda Beruniy nomidagi davlat stipendiyati va Prezident stipendiyati bo'lganim hayotimni o'zgartirib yubordi. Stipendiat talaba bo'lish o'zgacha ekan, universitetda mashhurlardek taniqli bo'lib yurish, hammaga seni namuna qilib ko'rsatishlari, ota-onam "bu mening qizim", deya faxrlanishini his qilish – bularning barchasi mana shu 4 yillik talabalik davrimni muvaffaqiyatli yakunlayotganimdan dalolatdir.

Universitetda o'tgan har bir daqiqa men uchun juda qadrlı. Faqatgina ilm jihatidan emas, hayotiy tajribalarga ham ega bo'ldim.



Omina Dushabayeva

"KELAJAKDAGI KARYERAMGA QADAM"

4 yillik talabalikda men ko'p narsalarni o'rgandim va tajriba orttirdim. Birinchi yili yangi muhitga moslashish, darslar va professorlar bilan tanishish bilan o'tdi. Ikkinchi yilda o'quv jarayoniga to'liq moslashib, o'zimni qiziqtirgan fanlar bo'yicha chuqurroq bilim olishga kirishdim. Uchinchi yili stajirovka va amaliyotlar orqali kasbiy malakamni oshirdim. To'rtinchi va so'nggi yili diplom ishim ustida ishlab, kelajakdagi

karyeramga tayyorgarlik ko'rdim. Mutaxassislik bo'yicha yetarlicha bilim salohiyatimni oshirdim. Ustozlarim bergan bilimlar turtki bo'lib, magistraturada o'qishni davom ettirishni niyat qildim. Nasib qilsa, doktoranturani ham o'qib, ilm yo'lidani ketaman.

Bu davr menga qiyin vaziyatlardan chiqib ketish va jamoa bilan ishlashni o'rgatdi. Sessiyadagi bir-birimizga yordamimiz sabab kursdoshlar yaqin do'stlarga aylandik. Bu yerda o'qib, ulg'aydim va hayotni oqu-qorasini o'rgandim. Ko'plab do'stlar orttirdim, turli tadbir va loyihalarda qatnashdim va hayotimning muhim bosqichlaridan birini yakunladim.

YODNOMA

«ORTDA QOLGAN IZ YAXSHI...»

Ikki yo'lida o'tgan umri

Shunday insonlar borki, ular foniy dunyoni tark etsalarda, odamlar qalbida yashashda davom etadilar. Butun umri davomida qilgan ezgu ishlari ularni tarixga mangu muhrlaydi.

Mana shunday insonlardan biri yillar davomida yurtimiz rivoji yo'lida munosib hissa qo'shib kelgan, odamiyligi, mehnatsevarligi va dilkashligi bilan qalblarda samimiy inson sifatida muhrlangan **Mahmud Ergashevdir**. Afsuski, ustoz 28-iyun kuni boqiy dunyoga rixlat qildilar. Ustozning vafoti minglab ko'zlarni yoshlantirdi. U kishini tanigan har bir inson ustoz haqqiga duo qildi.

Mahmud Ergashev 1949-yil 15-dekabr kuni Ohangaron tumanida tug'ildi. Ish faoliyatini Toshkent aviatsiya zavodida boshlagan. 1969-1973-yillarda Toshkent Politehnika instituti laboranti, 1975-1976-yillar Ohangaron plastmassa kombinati yetakchi muhandisi, 1976-1994-yillari Toshkent Politehnika instituti Olmaliq filialida katta o'qituvchi, 1994-2017-yillari Yangi Angren IESda muhandis, bo'lim boshlig'i, 2017-2019-yillari Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali Mashinasozlik texnologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi, 2022-yildan 2024-yilgacha Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali Texnologik mashinalar va jihozlar kafedrasida mudiri lavozimlarida ishladi.

Umrining so'nggi kunlarigacha talabalarga bilim berish bilan mashg'ul bo'lgan ustozimizni barcha hamkasblar va talabalar juda qattiq hurmat qilishardi. Ustozning teran fikri, keng dunyoqarashi va samimiyligi barchamizga o'rnak edi. Ustoz juda mas'uliyatli edilar, ish yuritish va hujjatlar bilan ishlashda o'ta tajribali ekanliklariga havas qilar edik. Ish faoliyati davomida qaysi lavozimda ishlamasin, ishchanlik, mehnatsevar va halollik namunalarini ko'rsatib kelgan.

Kuyunchak qiyofa

Ustozni ovozi bilan balandlatib gapirganini ham eslolmaymiz. **“Azizbek hozirgi yoshlarga nima bo'lyapti o'zi”**, deb ko'p kuyunib gapirardilar ba'zan. Uchrashuvlarda talabalarni ilmga undab, quyidagi so'zlarni dam-badam aytardilar: **“Hoy, ko'zlaringni ochinglar, ota-onangiz sizlarni ne-ne umidda o'qitaypti. Mahallada meni o'glim universitetda o'qiydi, deb faxrlanib gapiradi – sizlar esa telefonidan bosh ko'tarmaysiz. O'g'il bolalar sizlarda mas'uliyat 2 karra, chunki siz ertaga oila qurasiz, oila boshi bo'lasiz, bundan keyin ham o'zingizni, oilangiz ham ota-onangizni ta'minlashingiz kerak bo'ladi”** derdilar.



Maqollardan ma'no izlab

Ustozni hazil mutoyibani sevuvchi inson deb bilamiz, sababi har kuni ishga hammadan oldin kelar va hamkasblarini kutib olar ekanlar, ish boshlashimizdan oldin, albatta, bitta hazil bilan kunni boshlar edi. Ustoz o'zbek xalq maqollarini yaxshi ko'rar va ko'p ishlatardilar. Ba'zan **“Azizbek chumchuq haqidagi maqolni eshitganmisiz”**, deb so'rganlarida, men **“yo'q”**

desam, **“Shunaqa qilasizlarda maqol o'qimaysizlar”**, deb maqolni aytardilar-da, boshqa shogirdlariga hazillashib **“maqollarni yozib boryapsizmi”** deb qo'yardilar. Masalan, quyida keltirilgan maqollarni joyi kelganda, chiroyli qilib aytar edilar. Har biri ma'lum bir jarayonga qaratilgan va maqolni aytish bahonasida, o'sha voqelikka munosabatini bildirib ketardilar:

“Gap desang – qop-qop, ish desang – Samarqanddan top” (sergap talaba yo xodimlar uchun).

“Ahmoqqa To'ytepa bir qadam” (ishni orasida yo'q bo'lib qoladiganlar uchun)

“Tentak bosh, oyoqqa dam bermaydi” (bir ish uchun qayta-qayta ovora bo'laveradiganlarga).

“Bemaza qovunning urug'i ko'p bo'ladi”.

“Bo'ynidan bog'langan it–ovga yaramas”

(Majburlab qilinadigan ish ma'nosida aytardilar, ba'zan talaba o'qimasa, majburlab o'qitishga harakat qilsak, shu maqolni eslatardilar).

“Dangasaga ish buyursang, senga aql o'rgatar”. (o'zidan **“daho”** yasab olganlar uchun)

“It itga buyurar, it quyrug'iga”.

“Ish bor yerda, xato bor” (bizni tinchlashtirish uchun).

“Qimirlagan qir oshar” (bekor o'tiradiganlarni ko'rganda ishlatardilar).

“Yuki yengil eshak – yotag'on bo'lar”.

“Mehnat qilgan elda aziz”.

Maqol aytishni yaxshi ko'rar edilar. Latifalarni ham juda o'rinda ishlatardilar.

O'zida borini o'zgalarga berardi

Talabalik davrimizda ham **Mahmud Ergashev** bizga mutaxassislik fanlaridan dars berganlar. Ustoz va inson sifatida qanday ekanliklarini o'sha vaqtdan bilamiz. Hech qachon darsga kech qolmaganlar. Ma'ruza darslarida ham o'tirib dars o'tmaganlar. Qaysidir ma'noda bizni nazorat ostida ushlar, lekin o'zi ham darslarni faol tarzda, qiziqarli usulda olib borardilar. Ularning eng yaxshi xislatlari hammaga beminnat yordam berardilar. Boshqa kafedra domlari yordam so'rasalar ham, qo'llaridan kelgancha yo'l-yo'riq ko'rsatardi. Ustoz vafotini eshitgan shogirdlarining juda ko'pi ilm yo'lidagi yo'l ko'rsatuvchi bir maktab asoschisidan ayrilganlarini his qilishdi.


Ilmli ustozlar ko'p, ammo hamma ham Mahmud Ergashevdek beminnat yordam bera olmaydi. Og'ir, vazmin insonligi sababli jahllari chiqsada, boshqa bировga baqirib, alamini olmas edilar. Hammaga ishni teng taqsimlar edilar.

Gazetchi, ishchi va o'qituvchi

Ustoz har payshanba **“Argumenti i fakti”** gazetasini olib o'qirdilar. Yo o'zlari kelib olib ketardilar, yo men olib borib berardim. Joyida hisob-kitob qilardilar. **“Agar vaqtida pulini bermasam, ko'zim gazetadagi harflarni ko'rmay qoladi”**, deb aytardilar.

Ustoz dars o'tishda ham bizga ko'p namuna bo'lar edilar. **“Ma'ruza darslarida o'qituvchi talabani zeriktirib qo'ymasligi kerak”**, der edilar.

“Hozirgi yoshlar dangasa, hammasi ham emas-u, lekin tanballari ko'proq-da. Shaxsan o'zim bir nechta joylarda ishlardim. Institutda, zavodda va hatto gazetada fotomuxbirlik ham qilardim. Hamma ishinni yaxshi ko'rib qilardim. Bir kunda 4 soat uxlasam yetardi”, derdilar.



Bizning yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar bilimlarini isbotlashi uchun bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlashda kamida 4 ta chizma tayyorlashi kerak. Ustoz esa bitiruv malakaviy ishlarida 27 ta chizmani qo'lda chizganlarini ko'p aytardilar. Bu esa tanlagan sohani yaxshi ko'rganlaridan hamda astoydil o'qiganlaridan dalolatdir.

Ustoz fotokolleksiya yig'ishga qiziqar edilar. Rasm olish barobarida jamiyat rivojiga katta hissa qo'shgan odamlarning o'zi suratga olgan fotokolleksiyalarini va boshqa o'zi uchun qadrlil bo'lgan suratlarini yig'ishni yaxshi ko'rar edilar. Fotoapparatlarga ham qiziqardilar. Ma'lum rusumdagi apparatlarni ko'rsalar menga ko'rsatib, **“Qarang, bu shunaqa markali apparat”**, deb xarakteristikasini yoddan aytar edilar.

Shuningdek, radiomagnitofon yig'ishga juda qiziqardilar. Ulardan ham kolleksiya qilardilar. Internetdan e'lon qilingan eski radioapparatlarni ko'rib qolsalar, ustoz o'shani sotib olardilar. Nima qilasiz desam, **kolleksiya qilaman, siz bularni bilamysizda, avvalgi apparatlar hozirgisidan farq qiladi, ayniqsa ovozi bilan**, derdilar. Xilma-xil markali radio, magnitofon va patefon yiqqanlar.

25 yil davomida yangi Angren Issiqlik elektrostansiyasida ishlaganlar. Kafedramizning ushbu korxonaga bilan o'zaro hamkorlik aloqalari bor. Ustoz qachon borsalar, u yerdagi shogirdlari ochiq chehra bilan kutib olishar, ustozni korxonaga ko'p chaqirishardi. Ular ham ustozdan ko'plab maslahat so'rab turar edilar.

O'tgan umrning o'lchovi bor

Bizning qanday yashaganligimiz biz qilgan amallar va harakatlar bilan baholanadi. Odamiylik sifatida insonlar ongida yaxshi nom bilan qolayapmizmi, demak, biz qaysidir ma'noda yashayapmiz. Hamma ham bu dunyoga kelib, o'zidan yaxshi nom qoldirib keta olmaydi. Lekin shunday insonlar borki, buyuk ishlar qilishga ulgurmagani bo'lsalarda, o'zining ilmiy salohiyati va ayniqsa, insoniyligi, yordamga doim tayyorligi, xushfe'lligi bilan odamlar ko'nglidan abadiy joy egallaydi. Mahmud Ergashev shunday inson edilar va ular biz kabi shogirdlari qalbida chin insoniylik va ilm ustoz sifatida hamisha yodimizda.

Abduaziz Abdulkaxxarov,
Texnologik mashinalar va jihozlar kafedrasida assistenti.



Joriy yilgi kvotalarning avvalgi yillardagidan farqi bor. Xususan, kvotalar davlat granti OTMIlar kesimida emas, balki yo'nalishlar kesimida, to'lov-kontrakt uchun esa o'ly ta'lim muassasalari bo'yicha e'lon qilindi. Shuningdek, joriy yildan boshlab davlat grantlari oliygohlar uchun berilmaydi, balki yo'nalish uchun ajratiladi. Quyidagi jadvalda 2024-2025-o'quv yilida TDTU Olmaliq filiali bakalavriatining magistratura, kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakli bo'yicha davlat buyurtmasi asosida o'qishga qabul qilish parametrlarining ta'lim yo'nalishlari va o'qitish tillari bo'yicha taqsimlanishi berilgan.

2024-YILGI KVOTALAR TASDIQLANDI

MAGISTRATURA

2024/2025-o'quv yilida respublika oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga o'qishga qabul qilish parametrlarining mutaxassisliklar va o'qitish tillari bo'yicha taqsimoti.

JAMI: **17 500 ta.**

Davlat granti: **9 365 ta;**

shundan, o'zbek tili – **8 092 ta, rus tili – 1 273 ta,**

Kontrakt: **8 135 ta;**

shundan, o'zbek tili – **6 539 ta, rus tili – 1 596 ta**

2024/2025-o'quv yilida TDTU Olmaliq filiali magistraturasiga o'qishga qabul qilish parametrlarining mutaxassisliklar va o'qitish tillari bo'yicha davlat granti asosida jami 48 ta kvota, shundan 46 tasi o'zbek guruhi, 2 tasi rus guruhi uchun ajratilgan.

6	Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali	48	48	46	2
70710101	Kimyoviy texnologiya	10	10	10	
70711201	Metallurgiya	6	6	4	2
70712301	Mashinasozlik texnologiyasi	6	6	6	
70720407	Payvandlash ishlab chiqarish texnologiyasi va jihozlari	6	6	6	
70720801	Foydali qazilma konlarini qazish	14	14	14	
70721202	Konchilik ishlarini elektrlashtirish va avtomatlashtirish	6	6	6	

BAKALAVR. KUNDUZGI

2024-2025-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha davlat buyurtmasi asosida o'qishga qabul qilish parametrlarining ta'lim yo'nalishlari va o'qitish tillari bo'yicha jami 127 ming 995 ta kvota tasdiqlangan.

Shundan TDTU Olmaliq filiali uchun jami 750 ta, 525 tasi o'zbek guruhi va 225 tasi rus guruhlar uchun ajratilgan.

7	Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali	750	525	225				
60710100	Kimyo muhandisligi	100	75	25				
60710400	Energetika muhandisligi	50	25	25				
60710500	Elektr muhandisligi	50	25	25				
60711200	Metallurgiya muhandisligi	100	75	25				
60711300	Metallar texnologiyalari	50	25	25				
60712300	Mexanika muhandisligi	100	75	25				
60720400	Texnologik mashinalar va jihozlar	100	75	25				
60720800	Konchilik ishi	150	125	25				
60721200	Konchilik elektr mexanikasi	50	25	25				

BAKALAVR. SIRTQI

2024-2025-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining sirtqi ta'lim shakli bo'yicha davlat buyurtmasi asosida o'qishga qabul qilish parametrlarining ta'lim yo'nalishlari va o'qitish tillari bo'yicha jami 52 ming 129 ta kvota taqsimlangan.

Shundan TDTU Olmaliq filiali uchun jami 515 ta, 320 tasi o'zbek guruhi va 195 tasi rus guruhlar uchun ajratilgan.

7	Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali	515	320	195				
60710100	Kimyo muhandisligi	75	50	25				
60710400	Energetika muhandisligi	50	25	25				
60710500	Elektr muhandisligi	50	25	25				
60711200	Metallurgiya muhandisligi	75	50	25				
60712300	Mexanika muhandisligi	65	45	20				
60720400	Texnologik mashinalar va jihozlar	50	25	25				
60720800	Konchilik ishi	100	75	25				
60721200	Konchilik elektr mexanikasi	50	25	25				

BAKALAVR. KECHKI

2024-2025-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining kechki ta'lim shakli bo'yicha davlat buyurtmasi asosida o'qishga qabul qilish parametrlari ta'lim yo'nalishlari va o'qitish tillari bo'yicha jami 9 ming 158 ta kvota taqsimlangan.

Shundan TDTU Olmaliq filialining o'zbek guruhi uchun jami 225 ta kvota ajratilgan.

5	Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali	225	225				
60710100	Kimyo muhandisligi	25	25				
60710400	Energetika muhandisligi	25	25				
60710500	Elektr muhandisligi	25	25				
60711200	Metallurgiya muhandisligi	25	25				
60711300	Metallar texnologiyalari	25	25				
60712300	Mexanika muhandisligi	25	25				
60720400	Texnologik mashinalar va jihozlar	25	25				
60720800	Konchilik ishi	25	25				
60721200	Konchilik elektr mexanikasi	25	25				

#bu_qiziq

BIR TALABA UCHUN YILLIK O'QITISH XARAJATI QANCHA?

Davlat oliy ta'lim muassasalarida 2023/2024-o'quv yili uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kunduzgi ta'lim shaklida bir talabaga to'g'ri keladigan o'rtacha o'qitish xarajatlari va uning qoplanish holati tahlili e'lon qilindi.

Unga ko'ra, o'rtacha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha stipendiyasiz o'qitish xarajatlari 13 mln 640 ming so'mni tashkil qiladi. O'rtacha to'lov kontrakt qiymati esa 7 mln 446 ming so'm, ya'ni xarajatlarning 54 foizini qoplaydi.

Davlat oliy ta'lim muassasalarida 2023/2024-o'quv yili uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kunduzgi ta'lim shaklida bir talabaga to'g'ri keladigan o'rtacha o'qitish xarajatlari va uning qoplanish holati tahlili (ming so'mda)

Ta'lim yo'nalishlari	Amaldagi to'lov-kontrakt qiymati (stipendiyasiz)	O'qitish xarajati		shu jumladan: Yillik stipendiya miqdori (517 mln so'm)	Xarajatlar qoplanishi (%)
		Stipendiyasiz	Stipendiyasiz		
I. GUMONAR SOHA					
Pedagogika, shu jumladan kasbiy ta'lim	6 412,6	18 291,6	12 077,0	6 214,6	53,7%
San'at	7 771,3	34 973,6	28 759,0	6 214,6	27,0%
Qo'shimcha fanlar	6 412,6	18 291,6	12 077,0	6 214,6	53,7%
shu jumladan:					
shu jumladan: turkiy tillar filologiyasi, o'zbekiston (filologiya), tarix va nazariyasi va amaliyoti, o'zbek tili (tarixiy matnlar) va amaliyoti	7 091,9	21 124,6	14 910,0	6 214,6	47,0%
Jahon siyosati	9 809,3	18 291,6	12 077,0	6 214,6	81,2%
matematika, ushbu matematika va infomatika	6 412,6	18 291,6	12 077,0	6 214,6	53,7%
II. IJTIMOIY SOHA, IQTISOD VA HUQUQ					
Sotsiologiya va psixologiya	6 412,6	18 291,6	12 077,0	6 214,6	53,7%
Juridik fanlar va shubha	6 412,6	18 291,6	12 077,0	6 214,6	53,7%
Iqtisod	9 129,9	18 291,6	12 077,0	6 214,6	78,0%
shu jumladan: jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar	9 809,3	18 291,6	12 077,0	6 214,6	81,2%
Huquq	9 809,3	18 291,6	12 077,0	6 214,6	81,2%
III. ISHLAB CHIQARISH VA TEXNIKA SOHA					

Muhandislik ishi, ishlab chiqarish texnologiyalari	6 412,6	18 399,6	12 185,0	6 214,6	52,6%
Kompyuter texnologiyalari va informatika, aloqa va axborotlashtirish, telekommunikatsiya texnologiyalari	7 091,9	18 399,6	12 185,0	6 214,6	58,2%
shu jumladan: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida iqtisodiyot va menejment	9 129,9	18 291,6	12 077,0	6 214,6	75,6%
Arxitektura va qurilish	7 091,9	18 399,6	12 185,0	6 214,6	58,2%
shu jumladan: arxitektura, qishloq hududlarini arxitekturalashtirish tashkil etish	7 771,3	22 867,6	16 653,0	6 214,6	46,7%
IV. QISHLOQ VA SIVIL XO'JALIGI					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, qishloq xo'jaligida menejment, qishloq xo'jalik texnikasi, veterinariya, irrigatsiya va melioratsiya	6 412,6	18 399,6	12 185,0	6 214,6	52,6%
V. SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIY TA'MINOT					
Sog'liqni saqlash	9 129,9	23 957,6	17 743,0	6 214,6	51,5%
Ijtimoiy ta'minot	6 412,6	18 291,6	12 077,0	6 214,6	53,7%
VI. XIZMATLAR SOHASI					
Xizmat ko'rsatish sohasi	7 091,9	18 291,6	12 077,0	6 214,6	58,7%
shu jumladan: sport faoliyati	6 412,6	23 957,6	17 743,0	6 214,6	36,1%
Transport	6 412,6	18 399,6	12 185,0	6 214,6	52,6%
Atrof-muhit muhofazasi, hayotiy faoliyat xavfsizligi	6 412,6	18 291,6	12 077,0	6 214,6	53,7%
O'rtacha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qiymat	7 446,4	19 855,2	13 640,6	6 214,6	x

san'at yo'nalishida o'qiydigan talaba uchun kontrakt yiliga 7 mln 771 ming so'm bo'lsa, unga ketadigan xarajat miqdori 28 mln 759 ming so'mni (27%) tashkil qiladi.

Tahlilda ko'rsatilishicha, hech bir sohada kontrakt summasi xarajatlarning katta qismini qoplaydigan yo'nalishlar ro'yxatida huquq (81,2%), jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar (81,2%), yo'nalishlari o'rin olgan.

KITOB - HAYOT XAZINASI

Odamlar kitob o'qishdan to'xtasalar, firklashdan ham to'xtaydilar.
Deni Didro.

Deni Didro bu hikmati bilan xuddi bugungi kunimizga ishora qilib ketgandek go'yo. Qachondir ilmi bo'lib, teran-tafakkurli insonlar safiga qo'shilmas ekanmiz, qo'limizdagi insoniyatning o'zi yaratgan matofiga, ya'ni telefonlarga mutelikda davom etamiz. Qachonki, mutolaaga qaytsak...

Inson taraqqiyoti aynan mutolaa bilan uzviy bog'liqdir. Afsuski, bu bog'liqliktobora ingichkalashib bormoqda. Kitob o'qish bo'yicha qilinayotgan targ'ibotlar esa foyda bermayapti. Statistikasiz ham atrofga nazar tashlaydigan bo'lsak, ijtimoiy tarmoqqa qimmatli vaqtini sarflayotganlarning foizi kitob o'qiyotganlar foizidan ancha ko'p. Bir qarashda bu holat o'ta vahimali ko'rinmasligi mumkin. Ammo bitta kitob o'qiyotgan odamni ko'rib qolsak, kun fotosi sifatida shu odamni qahramonga aylantirish darajasiga etib kelayapmiz. Aslida bu millatning fojeasidir.

Ruhiyatimizni ozuqasiz qoldirishda davom etsak, nafaqat millat, hatto davlat rivoji tanazzuliga yuz tutishi hech gap emas. Shunday ekan, ko'ngil va ruhiyat tabibi bo'lgan kitobga oshno bo'lish va kutubxonadan kitob olib o'qishni boshlang.

Bejizga kutubxonani tilga olmadik. Kitoblar bilan har yili boyitilib boriladigan kutubxona arzon, aslida juda qimmat, biz qadriga etmaydigan xazinalar maskanidir. Bu xazinani bilganlar eng boy odamlardir. Mana shunday ma'nau boy insonlarning ayrimlari haqida qisqacha aytib o'tmoqchimiz.

TDTU Olmaliq filiali bosh binosidagai kutubxonaga kirar ekanman, a'zolik daftarchalariga ko'zim tushdi. Deyarli juda ko'p daftarchalar faqat sessiyada birrovga olingan darsliklar bilan to'la. Biroq ularni orasida e'tiborimni tortgani devonxona va arxiv bo'limi ish yurituvchisi Dilnoza Zaripova, texnik xodim (qorovul) Xusan Alimqulov hamda konchilik va metallurgiya yo'nalishi talabasi Akrom Abdulkarimovlarning a'zolik daftarchalari bo'ldi. Aynan ular kutubxonadan tez-tez, bir-birini takrorlamas turli mavzulardagi kitoblarni olib, o'qib yurishar ekan. Be'jiz bu insonlarni e'tirof etmadik, chunki amalda doim qo'llarida kitob ushlab, mutolaa qilib yuruvchi bu kabi kitobxonlar safi chindan oz.

Filial Axborot-resurs markazining umumiy fondida 14063 nom va 34186 nusxadagi adabiyotlar mavjud bo'lib, ulardan 3155 nomdagi 8217 tasi badiiy adabiyotlardir. Lekin a'zolik daftarchalaridan filialda kitobsevarlar ko'p emasligi ma'lum. Yuqoridagi raqamlar kutubxonada o'zingiz istagan mavzudagi kitoblar mavjudligini va istalgan vaqtda borib o'zi ma'naviy boyligingizni ko'paytirish uchun tekin xazinadan bemaol foydalanish mumkinligini ko'rsatmoqda. Faqat buning uchun xohish, istak va harakat bo'lsa etarli.

Fikrimizni Suqrotning mana bu fikrlari bilan yakunlamoqchimiz: «Qanday odamni baxtli sanamoq mumkin?» — degan savolga Suqrot shunday javob berdi: — *O'tkir aql va teran, halol fikrlar egasi baxtiyordir.*



Bunday insonga aylanish uchun kitob mutolaasi bilan band bo'ling doim.

O'qing, bu - qiziq!

*Engkeksa yozuvchilar—amerikalik opa-singillar **Sara** va **Elizabet Delenilar** hisoblanishadi. 1994-yilda ushbu adibalarning *“Opa-singil Delenilarning kundalik tajribalari”* nomli kitobi chop etilganda, ularning biri 103, ikkinchisi esa 105 yoshni qarshilagandi.

*Jahondagi eng yirik nashr 1112 tomli Britaniya parlamenti hujjatlari nashri sanaladi. U Irland universiteti tomonidan 1968-1972 yillarda chop etilgan. Hujjatlar og'irligi 3,3 tonnaga teng. Nashrni to'liq o'qib chiqish uchun (har bir sutkada o'n soatdan o'qilgan taqdirda) 6 yil sarflash lozim bo'ladi.

*AQShning Kolorado shtatidagi Denaver degan shaharida chop etilib **“Super”** nomini olgan kitob asrimizning eng katta va g'aroyib kitoblaridan sanaladi. Uning o'lchami eniga 2 metru 74 sm, bo'yi 3 metru 07 sm bo'lib, og'irligi esa 252 kg.ni tashkil etar ekan. Kitob egasi uni ko'rgani kelgan kishilarga: *“Ana, turibdi. O'zingiz olib ko'ra qoling”*, — der ekan hazillashib. Matbuotchilar tomonidan ozmi-ko'pmi zahmatli mehnat bilan yaratilgan bu mo'jiza-kitob ancha og'irligiga qaramasdan qo'lma-qo'l bo'lib o'qilayotgan ekan.